


Joriy yilda qator sohalarda amalga oshiriladigan ishlar taqdimoti bilan tanishildi




Bugun Surxondaryo viloyati hokimi Ulugʻbek Qosimov huzurida 2024-yilda moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish hamda turizm, sport, madaniyat, madaniy meros va ommaviy kommunikatsiyalar masalalari boʻyicha amalga oshiriladigan ishlar taqdimoti oʻtkazildi.



Viloyat hokimining sohalarga masʼul oʻrinbosarlari hamda komplekslar tarkibidagi tashkilot, idora va korxonalar rahbarlari tomonidan oʻtkazilgan taqdimotda joriy yilda belgilab olingan rejalar, yangi loyihalar va qoʻshimcha imkoniyatlarni ishga solgan holda tarmoq va sohalarni rivojlantirish boʻyicha amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan axborot berildi.



Shuningdek, “yashirin iqtisodiyot”ga qarshi kurashish, korxonalar faoliyatini sogʻlomlashtirish, ish oʻrinlarini legallashtirish hamda soliq tushumlari boʻyicha qoʻshimcha manbalarni aniqlash borasida olib borilayotgan ishlar yuzasidan hisobot berildi.



Viloyat rahbari soha va tarmoqlar hamda tashkilotlar kesimida oʻz yechimini kutayotgan muammo va kamchiliklarni sanab oʻtib, istiqboldagi vazifalar, amalga oshirilishi lozim boʻlgan chora-tadbirlarni belgilab berdi.